

LINGVISTIK TERMINLAR TEZAVRUSINI YARATISHNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Xudayberganova Munira Safarboy qizi, *Urganch davlat universiteti “Lingvistika: o‘zbek tili” yo‘nalishi magistranti*

A LEXICOGRAPHIC STUDY OF CREATING A THESAURUS OF LINGUISTIC TERMS

Khudaiberganova Munira Safarboy qizi, *graduate student of Urganch State University, majoring in “Linguistics: Uzbek language”*

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОЗДАНИЯ ТЕЗАУРУСА ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Худайберганова Мунира Сафарбой кызы, *магистрант Ургенчского государственного университета по специальности «Лингвистика: узбекский язык»*



<https://orcid.org/0009-0002-7371-3418>

e-mail:

xudayberganovamunira668@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikdagi yangi sohalaridan bo‘lgan kompyutrer lingvistikasi yo‘nalishidan biri hisoblangan kompyuter leksikografiya orqali lingvistik terminlarning tezavrusini yaratishning leksikografik tahlili va elektron resurslardan foydalangan holda tezaurus ya‘ni ideografik tipdagi lug‘atlarni yaratish haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, lingvistika, lug‘at, termin, lingvistik lug‘atlar, tezaurus tipidagi lug‘atlar, ideografik lug‘at, terminografiya.

Abstract: In this article, the lexicographic analysis of creating a thesaurus of linguistic terms through computer lexicography, which is one of the directions of computer linguistics, which is one of the new fields in linguistics, and the creation of thesaurus, ideographic type dictionaries using electronic resources, are presented.

Keywords: lexicography, linguistics, dictionary, term, linguistic dictionaries, thesaurus type dictionaries, ideographic dictionary, terminography.

Аннотация: В данной статье проводится лексикографический анализ создания тезауруса лингвистических терминов посредством компьютерной лексикографии, являющейся одним из направлений компьютерной лингвистики, являющейся одним из новых направлений лингвистики, и создание тезаурусов, словарей идеографического типа с использованием представлены электронные ресурсы.

Ключевые слова: лексикография, лингвистика, словарь, термин, лингвистические словари, словари тезаурусного типа, идеографический словарь, терминография.

KIRISH. Bilamizki, lug‘atlar madaniyatning eng yuqori ko‘rsatkichi deya ta‘riflanadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani yaqqol ko‘rsatib bera oladigan narsa bu lug‘atlar bo‘lib, madaniy tilshunoslik tushunchasini shakllantiradi. Lug‘at-ma‘lum bir maqsad uchun tuzilgan va tartibga solingan atamalar to‘plami. Leksikografiya

(yunoncha “leksikos” — so‘z va “grapho” — yozmoq) — leksikografiya nazariyasining predmeti, lug‘at tuzish tamoyillari haqidagi fandir. Leksikograflar ya‘ni lug‘atshunoslar lug‘atlarni yaratadigan mutaxassislaridir. Leksikografiyaning vazifalariga kartochnalarni yaratish, ularni tizimlashtirish va yuritish, lug‘at tuzish tamoyillari

va usullarini ishlab chiqish kiradi. O‘zbek tilshunosligida lug‘atlarning ensiklopedik va filologik turlari mavjud. Tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo‘lgan kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tezaurus lug‘atlarni yaratish va kompyuter dasturlari orqali lingvistik terminlarning tezaurusini yaratish haqidagi fikr va mulohazalar bildirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Lug‘atning birlamchi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilayotgan lug‘at tarkibini to‘plash va tavsiflash, shuningdek, uning qoidalarini o‘rnatish va saqlash mas‘uliyati. Bundan tashqari, nutq madaniyatining o‘shishiga yordam beradi. Tilshunoslik sohaları orasida kardinal yo‘nalishlardan biri bu lug‘atshunoslikdir. Shu sababdan ham lug‘atshunoslik va bu boradagi asarlarni o‘rganib, keng jamoatchilikka taqdim etish sharqshunoslar oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi[1].

Metod. Ushbu mavzuni yoritish davomida tavsiflash, qiyoslash, analiz, sintez, tasniflash metodlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA. Barcha jabhalarda bo‘lgani kabi lingvistika sohasi ham juda keng qamrovli o‘zgarishlar va rivojlanishlar bosqichiga qadam qo‘ydi. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari paydo bo‘la boshladi. Zamon va makondagi o‘zgarish va yangiliklar tilda bevosita o‘z aksini topadi. Bugungi kunda tilshunoslikka ham juda kuchli talablar belgilanyapti, bu esa o‘z navbatida yetuk mutaxassislarni talab qilyapti. Bugungi maqolamiz orqali biz ham shu sohaning bir bo‘lagi sifatida lingvistik terminlarning tezaurusini yaratishdagi nazariy ma‘lumotlarni keltirib o‘tamiz. Matndagi texnikaviy terminlarni o‘rganish va ularning muqobil variantlarini avtomatik tarjima qilishda terminologiya sohasining o‘rni katta[2]. Terminlarning turli shakldagi lug‘atlarini yaratish terminografiya sohasida o‘rganiladi. “Ko‘p tilli terminografiyaning dolzarbligi tez fursatda o‘sib borayotgan avtomatlashgan lug‘atlar va terminologik ma‘lumotlar banki paydo bo‘lganligu bilan izohlanadi[3]”. Tezaurus – bu ma‘lum bir mavzu bo‘yicha tushunchalar daraxti bo‘lib, yuqoridan, eng umumiy va pastki, eng aniq, tor tushunchalar bilan yakunlanadi. Tezaurusdagi so‘zlar (terminlar) odatda umumiy-xususiy, butunbo‘lak va hokazo munosabat bilan bog‘lanadi.

Y.Karaulovning fikricha, “tushuncha”dan “so‘z”ga, “konsept” dan “belgi”ga o‘tiladi[4]”.

Tezaurus individual ma‘lumot tashuvchisi yoki tashuvchilar guruhiga ega bo‘lgan voqelik haqidagi bilimlar tizimining tavsifi sifatida talqin etiladi. Ushbu tashuvchi qo‘shimcha ma‘lumotni qabul qiluvchi rolini o‘ynashi mumkin, buning natijasida uning tezaurusi o‘zgaradi va asl tezaurus semantik ma‘lumotni qabul qilganda qabul qiluvchining imkoniyatlarini belgilaydi.

Lingvistik terminlar lug‘ati tilshunoslikdagi fanlarni aniqroq tushunishga va fanning mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Rus faylasufi P.A.Florenskiy terminlarning fandagi o‘rnini quyidagicha izohlagan: “Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog‘i, joy-joyiga qo‘yishdan iborat. Terminlar hayoti fan tarixining o‘zidir” [3].

Lug‘atlar tilshunoslik nazariyasi natijalarini hayotga tatbiq etadi va sinovdan o‘tkazadi, ko‘pincha lug‘atlar hali o‘rganilmagan muammolarning amaliy yechimlari bilan fandan oldinda turadi. Galperin yozganidek, “leksikografiya o‘z kuchini, qadriyatini va nutqda qo‘llanish qobiliyatini yo‘qotmagan tilda yashovchi hamma narsani o‘z ichiga olishi kerak, shuningdek, yaqinda tug‘ilgan, hayotiy va barqaror lib ham barcha yangi narsalarni aks ettira oladi[4]”.

NATIJARLAR. “Tezaurus” atamasi yana ikkita ma‘noga ega. Ulardan biri juda to‘liq, eng to‘liq lug‘atdir; ikkinchisi leksikografiyaga emas, balki umumiy tilshunoslikka, shuningdek, bilish nazariyasi va aloqa nazariyasiga taalluqlidir: tezaurus - bu inson uchun mavjud bo‘lgan bilimlarning butun majmui.

Tezaurus yaratish borasida xorijda muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ingliz tilidagi lug‘at-tezaurus, V.Dal tomonidan yaratilgan izohli lug‘at - tezaurus, T.F.Yefremovning rus tilidagi yangi so‘zlarning lug‘at tezaurusi, S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova tomonidan yaratilgan rus tilining izohli lug‘ati – tezaurusi, Fasmer Maksning rus tilining etimologik lug‘ati – tezaurusi, yuridik terminlar tezaurusi yaratilgan[5].

Tezaurusdagi bog‘lanishlar quyidagicha bo‘ladi: 1. So‘zlar bilan ifodalangan predmet va jarayonlar vazifalarining umumiyligi va o‘xshashligi natijasida so‘zlarning bir guruhga jamlaydigan predmetli (ko‘gazmali) yoki tematik bog‘lanishlari:

uy-ro‘zg‘or predmetlari, tana a‘zolari, kiyim turlari, qurilishlar va b. Ideografik tezaurus – bu ko‘rgazmali (tematik) guruh tarkibidagi leksik birliklarni ifodalovchi va ularning dunyo haqidagi konseptualashtirilgan bilimlarini reprezentlash (qayta tasvirlash) uchun mo‘ljallangan iyerarxik tuzilmaga tashkillashtiruvchi leksikografik hosiladir.

2. Leksik-semantik bog‘lanishlar; bunday turdagi bog‘lanishli guruhlariga umumlashtirish so‘zlar uchun asosiy bo‘lgan alomat – leksik qiymatga ko‘ra amalga oshiriladi. Bunda shaklida so‘zlarning alohida qiymatlari namoyon bo‘ladigan leksik-grammatik bog‘lanishlar ham inobatga olinadi. Analogik tezaurus — bu makrotuzilmaning asosiy birligi leksik-semantik guruh bo‘lgan leksikografik ma‘lumotnomadir; guruhlarda ma‘noviy dominantlar alfavit ketma-ketligi tartibida sistemalashtirilgan. Semantik bog‘lanishlar giperonimlar va giponimlar (xrom - metall), sinonimlar (chaqqon-epchil), gender antonimlar (moda-nar), kichraytiruvchi-erkalovchi (singil – singilcha), kuchaytiruvchi /kattalashtiruvchi (qo‘l – katta qo‘l) semalarini ifoda etadi[5].

XULOSA. Xulosa o‘rnida, har qanday tilning ideografik lug‘atlari o‘sha tilning milliyligi, o‘ziga xosligi va madaniy fazilatlarini namoyon qiladi. Ideografik tipdagi lug‘at – bu aniq yoki mavhum g‘oyalarni ifodalovchi lingvistik belgilar to‘plami. Semantik ma‘no yaqinligi tezaurus, ya‘ni ideografik lug‘atlarning asosidir. Tilshunoslikda “tezaurus” so‘zi birinchi navbatda lug‘atning maxsus turi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, tezaurus “ideografik lug‘at” tushunchasi orqali ta‘riflanganligi sababli, biz “tezaurus” va “ideografik lug‘at” so‘zlarini sinonim sifatida ishlata olamiz. Terminografiya fanida esa bu juda muhim, ya‘ni leksikografiyada lug‘at so‘zi uchun bir xil atama. Bilamizki, O‘zbek leksikografiyasi o‘zining uzoq o‘tmishiga ega bo‘lib, uning ilk namunasi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. O‘zbek tilshunosligi fani ham Mahmud

Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan boshlanadi. Uzoq davriy bosqichlar davomida qomusiy va lingvistik lug‘atlar takomillashib bordi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Соловьев В.И., Яковенко Э.В. Краткий русско-арабский общественно-политический словарь. — М.: Вост. лит., 2003. С. 249.
2. Nilufar Abdurahmonova. Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim. Toshkent. 2021.192-b.
3. Флоренский, П. А. Термин [Текст] / П.А.Флоренский // В. А, Татаринов. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. - М.: Московский лицей, 1994.
4. Морковкин В.В. Идеографический словарь.- М. Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка.- М.,1981.-С.149.
5. Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, 2020. “Asian Book House”. 83-85-betlar.
6. Марчук Ю. Компьютерная лингвистика – М., 2007. - С. 196.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 3-15 bet. 1989.
6. A.Omonturdiyev, O‘.Xoliyorov, G.Korjovova. Hozirgi o‘zbek leksikografiyasi: Tahlil va tadqiqot. Termiz. 2016. 223-bet.
7. Dadaboyev H.A. Hozirgi o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi. O‘quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi, 2016-yil.-P. 96.
8. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi / O‘quv qo‘llanma. Mas‘ul muharrir: Akademik Alibek Rustamov. -Toshkent: O‘zbekiston, 2002. -B. 228.5. Moiseyev M.V. Ingliz tili leksikografiyasi / O‘quv qo‘llanma. Omsk davlat universiteti, 2006. -b. 92.

